

**«T A S D I Q L A Y M A N»**

“Xorazm mintaqaviy yo‘llarga  
buyurtmachi xizmati” davlat unitar  
korxonasi direktori:



R.Ro‘zimov

“ ” 2022 yil

**Yangibozor tumani Xalqobod MFY Xayrat, Samarqand, Tabiblar, Nurchi, Chordoq,  
ko‘chalari ichki xo‘jalik yo‘lini joriy ta’mirlash ob’ekti LSH ishlab chiqish” bo‘yicha**

**TANLASH HUJJATLARI**

Eng yaxshi takliflarni tanlash - 2021 yil 22 apreldagi №684-sonli O‘zbekiston Respublikasi  
“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunga asosan xamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya  
vazirligida 2018 yil 26 mayda №3016-sun bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan O‘zbekiston  
Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Loyixa Boshqaruvi Milliy Agentligining “Xarid qilish  
tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan  
o‘tkaziladi.

Xorazm-2022 yil

## «T A S D I Q L A Y M A N»



“Xorazm mintaqaviy yo’llarga  
buyurtmachi xizmati” davlat unitar  
korxonasi direktori:

R.Ro‘zimov

2022 yil

Texnik topshiriq

**Yangibozor tumani Xalqobod MFY Xayrat, Samarqand, Tabiblar, Nurchi, Chordiq, ko‘chalari  
ichki xo‘jalik yo‘lini joriy ta’mirlash ob’ekti LSH ishlab chiqish**

Eng yaxshi takliflarni tanlashda ma'lumot jadvali

Bu bo'linda Eng yaxshi takliflarni tanlash (keying o'rinnarda tanlash deb yuritiladi) mavzusi bo'yicha aniq qoidalar, shuningdek, tanlash hujjatlarining boshqa bo'limalarda keltirilgan ma'lumotlar yoki talablar mavjud

Nº	Bo‘lim nomi	izox
1	Buyurtmachi:	Xorazm mintaqaviy yo’llarga buyurtmachi xizmati davlat unitar korxonasi
2	TANLASH PREDMETI:	Yangibozor tumani Xalqobod MFY Xayrat, Samarqand, Tabiblar, Nurchi, Chordiq, ko‘chalari ichki xo‘jalik yo‘lini joriy ta’mirlash ob’ekti LSH ishlab chiqish
3	Tanlash tartib raqami:	№ 55
4	Buyurtmachining manzili va bog‘lanish uchun kontaktlar:	Xorazm viloyati Urganch shaxar Xiva shox ko‘chasi 1-km, 22-6-01-26
5	Mas‘ul shaxs bilan bog‘lanish tel:	+99897 464 09 04
6	Tanlov e’lon qilinadigan portal	Maxsus axborot portalı: <a href="http://www.xarid.uzex.uz">www.xarid.uzex.uz</a>
7	Ishtirokchilar tanlashda ishtirok etishi	Yuridik shaxslar uyushmaları (konsorsiumları) tanlovida ishtirok etishga yo‘l qo‘yilmaydi Ishtirokchi va uning afillangan shaxsi tanlash bo‘yicha ayni bitta lotda ishtirok etish huquqiga ega emas
8	Litsenziyalangan ish turlari	Ushbu turdagı obektlar LSH ishlash uchun litsenziya talab etiladi
9	Tanlash taklifining amal qilish muddati:	takliflarni qabul qilish tugagan kundan boshlab kamida 10 ish kuni
10	Takliflarni qabul qilish	Takliflar <a href="http://xarid.uzex.uz">xarid.uzex.uz</a> saytida e’lon qilingan paytdan boshlab elektron tartibda elektron tizim operatori tomonidan qabul qilinadi
12	Tanlash va takliflarni ochish, amalga oshirish shakli	Elektron ko‘rinishda
13	Takliflarni baholash muddati	Tanlov taklifini baholash muddati takliflar qabul qilish tugagan kundan boshlab 10 ish kunidan oshmaydi
14	Tanlash tili:	O‘zbek tili
15	Moliyalashtirish manbai	Budget mablag‘lari
16	Avans	30 %
17	Kafolat summasi	3 %
18	Pul birligi	O‘zbek so‘mi

б.с.бодироб

Ро‘зимов

## ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASHDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFNOMA

**“Xorazm mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati davlat unitar korxonasi” nomidan eng yaxshi takliflarni tanlashda ishtirok etishga ishtirokchilarini taklif etamiz va quyidagi ob’ekt bo‘yicha tanlash taklifini taqdim etilishini so‘raymiz.**

***Ob’ekt nomi: «YANGIBOZOR TUMANI XALQOBOD MFY XAYRAT,  
SAMARQAND, TABIBLAR, NURCHI, CHORDOQ, KO‘CHALARI ICHKI  
XO‘JALIK YO‘LINI JORIY TA‘MIRLASH» ishlariga loyiha-smeta xujjatlarini  
tayyorlab ijobiy ekspertiza xulosasini olish***

---

*Ob’ektning boshlang‘ich narxi (QQS bilan) – 18 333 000 so‘m.  
Ishlarni tugallash muddati – 16 kun.*

♦ Buyurtmachi: “**Xorazm mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati davlat unitar korxonasi**”: (Urganch shahar Xiva shox ko‘chasi 1 km), Tel (0362)226-01-24.

Loyihani moliyalashtirish manbasi: Davlat byudjeti.

Taklif etilgan shartlar bo‘yicha tanlashda murojaat bilan mahalliy tashkilotlari ishtirok etishlari mumkin.

Tanlashda ishtirok etishi uchun ishtirokchilarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

fuqarolik-muomala layoqati va shartnoma tuzish vakolati;

Litsenziyaga ega bo‘lishi;

doimiy xodimlari, jumladan muhandis-texnik xodimlariga ega bo‘lishi;

ishlab turgan asosiy vositalari, shu jumladan, ofis texnikalariga ega bo‘lishi;

tanlashda ob’ektiga o‘xhash ob’ektlarda ishlaganlik tajribasi mavjudligi;

bajarilgan ishlar, shu jumladan o‘z kuchi bilan oldin bajarilgan ishlar hajmi haqidagi ma’lumotlarni taqdim etish;

ustav fondi miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Agar tanlash predmeti bo‘lgan ish (xizmat) larni bajarish bilan bog‘liq faoliyat qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalanishi zarur bo‘lsa, tanlashda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga asosan tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan tanlash ishtirokchilarga ruxsat etiladi.

Quyidagi xollarda ishtirokchilariga tanlash jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

qayta tashkil etilish (bo‘linish, qo‘shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar;

mol-mulki musodaraga olinganlar hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding, konsorsium va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir-biriga moliyaviy qaramligi mavjud tashkilotlar.

**Buyurtmachi tashkilot  
rahbari:**

**R.Ro‘zimov**

## ISHTIROKCHILAR UCHUN YO'RIQNOMA

Ushbu yo'riqnomalar 2021 yil 22 apreldagi №684-soni O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunga asosan xamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 mayda №3016-soni bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Loyixa Boshqaru Milliy Agentligining "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan ishlab chiqildi.

### ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASHDA HUJJATLARINING MUNDARIJASI

**Texnik qism:**

- 1 - shakl.** Tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumotlar.
  - 2 - shakl.** Tanlash ishtirokchisining moliyaviy ko'rsatkichlari (ilovalari bilan).
  - 3 - shakl.** Tanlashdagi ob'ektga o'xshash ob'ektlarda oxirgi uch yillik ish tajribasi.
  - 4 - shakl.** Tanlash ishtirokchisining ishlarni bajarishda ofis texnikasining ro'yxati.
  - 5 - shakl.** Qurilish maydonchasini ko'zdan kechirganligi to'g'risida ma'lumotnomasi.
  - 6 - shakl.** Loyerha smeta xujjatlarini ishlarini bajarish grafigi.
- Tijorat qismi:**
- Loyerha smeta xujjatlarini ishlab chiqishning boshlang'ich narxi (elektron tizim orqali);
- Loyerha smeta xujjatlarini ishlab chiqishning muddati (elektron tizim orqali); moliyalashtirish manbasi, shartlari hamda shartnoma loyihasidan iborat.

### ISHTIROKCHILARNING TANLASHDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI

1. Tanlashda mulkchilik shaklidan katiy nazar shu mazmunda ish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan, kamida 5 yil tajribaga ega bo'lgan barcha yuridik maqomga ega bo'lgan tashkilotlar ishtirok etishi mumkin.

Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi (bundan buyon matnda ishtirokchi deb yuritiladi) xarid qilish tartib-taomilida davlat xaridlari bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, O'zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo'lgan yuridik shaxsdir.

Ishtirokchi:

davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan qonunchilikda nazarda tutilgan hajmda foydalanish;

xarid komissiyasi tomonidan takliflar ochilayotganda belgilangan tartibda ishtirok etish;

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga xarid qilish tartib-taomillari natijalari yuzasidan shikoyat qilish;

qonunchilikka muvofiq takliflarga o‘zgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish huquqiga ega.

Ishtirokchi:

davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo‘lishi;

asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etishi;

g‘olib deb topilgan taqdirda, davlat buyurtmachisi bilan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart.

Ishtirokchi va uning affillangan shaxsi eng yaxshi takliflarni tanlash bo‘yicha ayni bitta lotda ishtirok etish huquqiga ega emas.

Elektron tanlashda quyidagi mezonlarga muvofiq bo‘lgan ishtirokchilar qatnasha oladi:

shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi;

shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;

soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;

o‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

insofsiz ijrochilarining yagona reestrda qayd etilmaganligi.

2. Tanlashda ishtirok etishi uchun talabgorlarga quyidagi malakaviy talablar talab etiladi:

ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo‘lgan mexnat resurslari va mutaxassislarining mavjudligi hamda moddiy tehnik bazaga ega bo‘lishi;

shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik, xukukiy layokat va vakolatlar; tanlash obektiga o‘xhash ob’ektlarda ishlash tajribasining mavjudligi;

o‘z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish xajmlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

loyixalashtiriladigan ob’ektning murakkablik toifasiga ko‘ra belgilangan tartibga muvofiq tegishli toifali, litsenziyasi bo‘lishi, shunga o‘xhash ob’ektlarda ishlagan bo‘lishi lozim.

3. Quyidagi talabgorlarga tanlash jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat etilmaydi:

qayta tashkil etish (ajratilish, qo‘shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar;

mol mulki musodara qilinganlar hamda molyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-xuquqiy yoki bir biriga molyaviy qaramliligi mavjudlar.

4. Tanlash ishtirokchilarini tanlash predmetining loyixa xujatlari, xususan, loyixani grafik qismi (chizmalar) bilan tanishib chiqish va tanlash taklifini tuzish uchun buyurtmachiga (tanlash tashkilotchisiga) taqdim etilishi xaqida murojat qilishga xaqlidir.

5. Elektron tanlashda quyidagi mezonlarga muvofiq bo‘lgan ishtirokchilar qatnasha oladi:

shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, molyaviy, moddiy, kadrlar resurslarning hamda boshqa resurslarning mavjudligi;

shartnama tuzish uchun qonuniy xuquqqa egalik;

soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;

o‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

insofsiz ijrochilarining yagona restrda qayd etilmaganligi.

## **XARID KOMISSIYASI**

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish chog‘ida davlat buyurtmachisi tomonidan shakllantiriladigan, ushbu tartib-taomillarni o‘tkazish tartibida shakllantirilishi talab etiladigan kollegial organdir.

Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g‘olibni (g‘oliblarni) tanlashdan iborat.

Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo‘yishni va xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e’lon qiladi, shuningdek xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Xarid komissiyasi raisi yo‘qligida uning vazifalarini o‘ribosari bajaradi.

Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan mas’ul kotibi tashkil etadi.

Xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo‘lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta’minlash shaklini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

dastlabki malaka tanlashini o‘tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo‘lsa;

zarur bo‘lganda dastlabki malaka tanlashi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo‘lganda baholash guruhini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

xarid qilish tartib-taomillarini ushbu Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g‘olibini va zarur bo‘lganda zaxiradagi g‘olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

Xarid qilish hujjatlariga

Nº: \_\_\_\_\_ Sana: \_\_\_\_\_

**Xarid komissiyasi**

### **KAFOLAT XATI**

Mazkur xatni yo'llash orqali sizga ushbu tashkilot (tashkilotning nomi ko'rsatiladi):

- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatlarda emasligi;
- buyurtmachi bilan sud yoki arbitraj munosabatlariга kirishmaganligi;
- avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning tegishli darajada bajarmaslik holatlari mavjud emasligi;
- taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'rilingini tasdiqlaymiz.

Imzo:

Rahbarning F.I.SH. \_\_\_\_\_

M.O'.

## 1- SHAKL

**TANLASH ISHTIROKCHISI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR**

Tanlash ishtirokchisining nomi \_\_\_\_\_

Tanlash ishtirokchisi rahbarning familiyasi, ismi va otasining ismi \_\_\_\_\_

Manzili va telefon (faks) raqami \_\_\_\_\_

YURidik maqomi \_\_\_\_\_

Tuzilgan sanasi (kim tomonidan, berilgan order yoki buyruq raqami) \_\_\_\_\_

Asosiy faoliyat turi (statistika idorasi kodi bo'yicha) \_\_\_\_\_

**Rahbar va uning o'rribbosarlari:**

T/r	F.I.O.	Ma'lumoti (ta'lim muassasasi, mutaxassisligi, diplom raqami va berilgan sanasi)	ish tajribasi (yil)	Egallagan lavozimi	Egallagan lavozimida ish tajribasi (yil)
1	2	3	4	5	6

**Asosiy xodimlar (Loyiha bosh muxandisi, Loyiha bosh arxitektori)**

T/r	F.I.O.	Ma'lumoti (ta'lim muassasasi, mutaxassisligi, diplom raqami va berilgan sanasi)	ish tajribasi (yil)	Egallagan lavozimida ish tajribasi (yil)
1	2	3	4	5

**Doimiy ishchi xodimlar (ishchilar)**

T/r	Mutaxassisliklar nomi	Jami soni, shu jumladan mutaxassislikl ar va razryadlar bo'yicha	Ulardan (3-ustundan) malakasini tasdiqlovchi hujjati borlar	Ulardan (4-ustundan) Loyihalashtirilish da 10 yildan kam bo'lmagan ish tajribasi borlar
1	2	3	4	5
	Jami			
	SHu jumladan:			
	Loyihachilar			
	Smetachilar			
	Muxandis-texnik xodimlar			
	va boshqalar			

Kadrlar bo'limi boshlig'i:

/imzo va muhr/

Tanlash ishtirokchisi rahbarining imzosi:

Tuzilgan sana: " \_\_\_\_ " \_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ y.

**Izoh:** Tanlash ishtirokchisi korxona guvohnomasi nusxasini, litsenziya nusxasini shuningdek ko 'rsatilgan xodimlarning haqiqatda mavjudligi to 'g'risida ularni ish stoji va malakasini tasdiqlovchi YAgona milliy mehnat tizimi my.mehnat.uz dan yuklangan QR-kodli mehnat daftarchasidan ko 'chirmani hamda diplomlarni dasturga yuklashi shart.

## TANLASH ISHTIROKCHISINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI

(tanlash ishtirokchisining nomi)

AKTIVLAR	20__ y	20__ y	20__ y	PASSIVLAR	20__ y	20__ y	20__ y
<b>Uzok muddatli aktivlar</b>				<b>O'z mablag'lari manbai</b>			
Asosiy vositalar				Ustav fondi			
SHundan Ishlab chiqarish fondlari				Taqsimlanmagan foyda			
Qoldiq qiymat				<b>Majburiyatlar</b>			
Kapital quyilmalar				Zaymlar			
Tugallanmagan ishlab chiqarish				Kreditor qarzdorlik			
<b>Joriy aktivlar</b>				SHundan muddati o'tgan qarzdorlik			
Aylanma mablag'lar				SHundan byudjetdan qarzdorlik			
Ulardan ishlab chiqarish zaxiralari				SHundan ish haqidan qarzdorlik			
Debitor qarzdorlik							
SHundan muddati o'tgan qarzdorlik							
Jami balans aktivi bo'yicha				Jami balans passivi bo'yicha			

## MOLIYAVIY NATIJA

Nomi	20__ y	20__ y	20__ y	Nomi	20__ y	20__ y	20__ y
1. Realizatsiyadan olingan tushum				8. Sof foyda			
2. Realizatsiyadan olingan sof tushum				SHundan asosiy faoliyat bo'yicha			
3. Realizatsiya kilingan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi				Umumxo'jalik faoliyat bo'yicha			
4. Ma'muriy xarajatlar				9. Asosiy faoliyatdan olingan foyda			
5. Boshqa xarajatlar				10. Umumxo'jalik faoliyatdan olingan foyda			
6. Daromad solig'i to'lovi gacha foyda				11. Zarar			
7. Daromad solig'i				shundan asosiy faoliyatdan umumxo'jalik faoliyatdan			

Balans foydasi \_\_\_\_\_

Oxirgi 3 yilda bankrotlik yoki to‘lov qobiliyatsizligi yuzasidan sud ishi olib borilganmi?

Rahbar \_\_\_\_\_

Bosh hisobchi \_\_\_\_\_

muhr

Sana: «\_\_\_\_» 20 \_\_\_\_ y.

**Izoh:** *Tanlash ishtirokchisining keyingi 3 yildagi moliyaviy ahvoli haqidagi hujjatlari tarkibida auditor kompaniyasining ijobjiy xulosasinini taqdim etishi mumkin. Balans va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi xisobotlar(3 yillik) hamda talabgor tashkilotga xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan kartoteka K-2 da qarzdorligi mavjud emasligi hamda soliq to‘lovchining my.soliq.uz portalidan soliq qarzi mavjud emasligi to‘g‘risida QR-kodli ma’lumotnomalar dasturga yuklashi shart.*

**TANLASHDAGI OB'EKTGA O'XSHASH OB'EKTLARDA  
OXIRGI UCH YILLIK ISH TAJRIBASI**

(tanlash ishtirokchisining nomi)

T/ r	<b>Ob'ekt nomi, shartnoma summasi, ishlarning boshlanish va yakunlanish sanasi</b>	<b>Buyurtmachi nomi</b>	<b>Bajarilgan ishlar summasi</b>	<b>SHundan yillar bo'yicha</b>		
				<b>20__ y.</b>	<b>20__ y.</b>	<b>20__ y.</b>
	Jami:					

Tashkilot rahbarining imzosi: \_\_\_\_\_

Tuzilgan sanasi: “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_ y.

Tasdiqlangan: \_\_\_\_\_  
(bosh hisobchi imzosi)

**Izoh:** Ma'lumotlar tanlash ishtirokchisi tomonidan har bir ob'ekt bo'yicha ishlar turi bo'yicha mustaqil to'ldiriladi va bajarilgan ishlar hisob-fakturalari nusxalari bilan tasdiqlanadi.

**ISHLARNI BAJARISHDA FOYDALANADIGAN  
TANLASH ISHTIROKCHISINING MASHINA VA MEXANIZMLARI RO'YXATI**

T/ r	Nomi	Markasi	Soni	Ishlab chiqarilgan yili	Quvvati	Texnik holati	Balansida yoki ijarada
1	2	3	4	5	6	7	8
OFIS TEXNIKALARI va DASTURIY TA'MINOTLAR							
1							
2							
3							
4							
5							
6							
Hammasi							

Tashkilot rahbarining imzosi: \_\_\_\_\_

Tuzilgan sanasi: “\_\_\_\_\_” 20\_\_ y.

**Izohlar:**

1. ofis texnikasining tanlash ishtirokchisi balansida ekanligi yoki ijara olinganligi to'g'risidagi ma'lumot kiritiladi.
2. Ijaraga texnika olinganda ijara sharnomaning nusxasi taqdim etiladi (shartnoma loyihani bajarish davri mobaynida haqiqiy bo'lishi kerak).

**QURILISH MAYDONCHASINI  
KO‘ZDAN KECHIRGANLIGI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOTNOMA**

Ushbu bilan tasdiqlanadiki, men \_\_\_\_\_,  
(F.I.O., lavozimi.)

\_\_\_\_\_ tomonidan 20\_\_\_\_yil  
\_\_\_\_\_da berilgan ishonchnomaga asosan quyidagilarni batafsil o‘rgandim:

- a) tanlash hujjatlarini;
- b) loyiha hujjatlarini.

Mazkur shartnomani sifatli, to‘la va o‘z vaqtida bajarilishiga, kelgusidagi ishlarning qiymatiga, hajmlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan turli sharoitlar va boshqa holatlar hamda qurilish maydoni bilan tanishdim. Ushbu holatlarning barchasi o‘z taklifimizda hisobga olingan.

**Izoh:** Ushbu shaklda ob‘ektni o‘rganib chiqilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan, kirish yo‘llari, muhandislik tarmoqlarining mayjudligi, mayjud bino va inshootlar va ishlab chigarish bilan bog‘liq boshqa masalalar qurilish bosh rejasiga ko‘rinishida taqdim etiladi.

Qatnashchining vakolatli vakili: \_\_\_\_\_  
(F.I.O.)

\_\_\_\_\_ imzo

Buyurtmachining vakolatli vakili: \_\_\_\_\_  
(F.I.O.)

\_\_\_\_\_ imzo

Tashkilot rahbarining imzosi: \_\_\_\_\_

Tuzilgan sanasi: “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2021 y.

## ISHLARINI BAJARISH GRAFIGI

*(ob 'ekt nomi)*

T/r	Ishlar nomlanishi	Ishlarni boshlash sanasi	Ishlarni tugatish sanasi
1			
2			
3			
4			

**Izoh:** Jadvalda ishlarni umumiy dasturi (*ob 'ektning xususiyatlari hisobga olingan holda*) va ularni bajarish muddatlari ko 'rsatiladi.

Tashkilot rahbarining imzosi: \_\_\_\_\_

Tuzilgan sanasi: “\_\_\_\_\_” 20\_\_\_\_ y.

№: \_\_\_\_\_ Sana: \_\_\_\_\_

**Xarid komissiyasiga**

**KORRUPSIYA KO'RINISHLARIGA YO'L QO'YMASLIK BO'YICHA  
ARIZA**

Men, \_\_\_\_\_ (*xarid tartib-taomili ishtirokchisining nomi ko'rsatiladi*) tovar etkazib berish uchun (*taklif etilayotgan tovar turlari ko'rsatib o'tiladi*) o'tkazilayotgan eng yaxshi takliflarni tanlash vositasidagi davlat xaridida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik majburiyatini olaman.

Men korrupsiyaning quyidagi ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslikni kafolatlayman:

- O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday xatti-harakatlarni amalga oshirish;
- o'z mansab yoki xizmat mavqeimdan shaxsiy manfaatlarimni yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanish;
- tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka zid tartibda rasmiylashtirish;
- tanlash bo'yicha xarid qilish tartib-taomillarini qonunchilikka zid tartibda amalga oshirish;
- davlat xaridlari sub'ektlariga ta'sir o'tkazish, jumladan, pora berishni taklif qilish, va'da berish, tovlamachilik qilish, pora sifatida pul to'lash, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish;
- manfaatlar to'qnashuviga;
- tanlashda ishtirok etayotgan boshqa ishtirokchilar bilan til biriktirish;
- ishonchsiz yoki buzib ko'rsatilgan axborotni taqdim etish.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etish holatlari aniqlangan taqdirda qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortilishga rozilik bildiraman.

Rahbarning F.I.SH.: \_\_\_\_\_

Telefon/faks raqami: \_\_\_\_\_

Elektron pochta manzili: \_\_\_\_\_

Imzo:

M.O'.